

Muvaffaqiyatli insonlar ota-onasining tarbiya usuliga xos 11 o'xshashlik 1.
Ular uy ishlarida farzandlarining yordamidan foydalanadilar

Stendford universiteti professori Juli Linkotning «Farzand tarbiyalash» kitobida yozilishicha, bolalarga uy ishlarini o'rgatish ham katta saboq. Bu birinchi navbatda ularning mehnat va bilim doirasini kengaytirsam, ikkinchidan mas'uliyatli bo'lib voyaga yetishlariga xizmat qiladi.

Keyinchalik ham uy ishlarida yordam bergan bolalarda shakllangan ko'nikma ishga joylashganlarida ish beruvchi va hamkasblar bilan muvaffaqiyatli aloqalarni yo'lga qo'yishlarida yordam beradi. Boisi, bu bolalarda ishga mustaqil kirisha olish, qiyinchiliklarni bardosh bilan yengish, sabr va mehnatga chidamlilik xususiyatlari paydo bo'lgan bo'ladi.

U mazkur xulosalarni chiqarishda Harvard universiteti tomonidan o'tkazilgan Grant Study – inson muvaffaqiyatiga bag'ishlangan eng uzoq davom etgan tadqiqot natijalariga ham suyangam.

Misol uchun, bolaga uyni tartibga keltirishni, qog'oz bo'laklarini yig'ishni, o'z kiyim-kechaklarini tartibga keltirishni o'rgatish orqali bolalar hayotning bir qismiga aylanish uchun mehnat qilish zarurligini anglaydilar.